

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI KASB – HUNAR TANLASHGA TO'G'RI YO'NALTIRISH

Yakubova Marhabo Yusufovna

Chirchiq davlatpedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: marxabo.yakubova72@gmail.com

Toshtemirova Umida Qobil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: toshtemirovau5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari orqali O'quvchilarni kasb-hunar tanlashga yo'naltirish masalasi yoritilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya darslari qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina fanlar qatorida yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda Texnologiya fani o'zining muhim o'ringa ega hisoblanadi. O'quvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo'lmasin, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari hayotda, albatta naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida texnologiya fani asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qilishini yoritamiz.

Абстрактный: В данной статье освещен вопрос ориентации школьников на выбор профессии через уроки технологии в начальных классах. Уроки технологии являются одним из интересных предметов для учащихся начальных классов общеобразовательных школ. Технологии занимают важное место в правильной организации учебного процесса подрастающего поколения среди многих предметов. Когда школьник вырастет, какую бы профессию он ни выбрал, кем бы он ни был, знания и навыки, полученные им по предмету «Технология», обязательно принесут пользу в жизни. Сегодня мы объясняем, что техническая наука служит для молодежи главным помощником и важным ресурсом в выборе профессии, становлении всесторонне развитой личностью, развитии творческих способностей.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, kasbga yo'naltirish, boshlang'ich ta'lim, hunarmandchilik, kasb-hunar, texnologiya.

Ключевые слова: Учитель, ученик, профориентация, начальное образование, ремесло, профессия, технология.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan. Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta‘kidlash lozim.

Kasbga yo‘naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil to‘plashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalq xo‘jaligi manfaatlarini nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to‘laqonli ta‘minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini hisobga olish kerak. O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasb tanlash ishlarining puxta o‘ylab tashkil qilinishi katta rol o‘ynaydi. Har bir o‘quvchining oldida o‘zi yoqtirgan kasbni tanlash uchun keng imkoniyatlar bor. Har qaysi maktabdagi kasb tanlash ishlarining vazifasi va mazmuni uning atrofidagi ishlab chiqarishning xususiyatlari, tabiiy sharoitlari mazkur iqtisodiy tomondagi xalq xo‘jaligi va madaniyatining rivojlanish yo‘nalishlari bilan belgilanadi. Maktab o‘z tarbiyalanuvchilarini kasblar, mehnatining mazmuni, u yoki bu kasb egalariga qilinadigan talablar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish o‘quvchilarning individual, jismoniy va psixologik xususiyatlarini o‘rganish va ularga ana shu xususiyatlarga mos kasblarni tanlashlarida yordam berish kerak.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini, ta‘limini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo‘lib juda o‘tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq, elat bo‘lib shakllanishi mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson paydo bo‘lishidan boshlab mehnat bilan shug‘ullangan, turmush buyumlari yasagan namunalar bajargan. XII-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hunar, ilmi kuloni rivojlanishi eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Har bir xalq ota-bobosidan me‘ros bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘zining tarixiy –

madaniy birligi bilan ajralib o`ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. O`zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamizning hududida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo`lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo`lib ajralib chiqqan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar avj olgan. Ayrim maktablarga asoslanib shuni aytishimiz mumkin, 32 xil hunar turi mavjud bo`lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atalgan 1897-yili 1-chi aholi ro`yhati vaqtida katta shaharlarda aholining ko`pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Aholisining 64 foiz, Qo`qonning 52%. Marg`ilonning 50% mustaqil kasb – hunar egasi hisoblangan. Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko`p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunikasozlik bo`lgan. Xozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblar biri yog`och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashqlari paydo bo`lishi bilan yangi hunarmandchilik kasb yuzaga keldi. Shu bilan birga, Hunarmandlar terida poyafzal, nonvoylik, qandolatchilik, qassoblik, oshpazlik kasblari yuzaga kelgan. Ulug` bobokolonimiz A.Navoiy o`z g`azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi. Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o`rgandi onga ki imkoni bor. Kasbni to`g`ri tanlash har bir o`sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo`lishi uchun uning sog`ligini, o`zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko`ra ko`prok o`z ifodasini topadi va namoyon bo`ladi. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o`z xususiyatlariga qarab kasbni to`g`ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o`zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Ko`pgina olimlar o`tkazgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, maktab o`quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang`ich sinflardayoq shakllanar ekan. O`qituvchining vazifasi — o`quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg`un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Boshlang`ich sinflarda mehnat ta`limining asosiy maqsadlaridan biri — o`quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta`limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O`quvchilarning shaxsini o`rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog`liqdir. O`qituvchi o`quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste`dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy

jihatlarni bartaraf etishi mumkin va hokazo. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashishimiz muhimdir.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni ma'lum qilish joizki, o'quvchilarni o'z vaqtida to'g'ri kasbga yo'naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmon.
2. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013.
4. Yakubova M.Yu. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish/Monografiya. –T.: -136 b. (28.01.2022. TVCHDPI № 10- sonli buyrug'i)